

QURILISH TARMOG'IDAGI XARAJATLARNI HISOBLASH AMALIYOTIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI

Asadova Maftuna Sa'dullayevna

Toshkent arxitektura qurilish universiteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17862595>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida qurilish tarmog'ida xarajatlarni hisoblash amaliyotida uchraydigan mehnat va moliyaviy xarajatlar tuzilmasi, ularning shakllanish mexanizmi hamda dinamikasi ilmiy-iqtisodiy tahlil qilindi. Tadqiqotda amaldagi normativ-huquqiy baza, smeta narxlari tizimi, bozor narxlari o'zgaruvchanligi, mehnat resurslari baholanishidagi nomuvofiqliklar va resurslar sarfi me'yorlarining eskirganligi kabi omillar xarajatlarni hisoblashda yuzaga kelayotgan asosiy muammolar sifatida o'rganildi.

Shuningdek, qurilish jarayonlarida mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning samarali taqsimlanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar kompleks tahlil qilinib, smeta qiymatlarining real bozordagi narxlar bilan tafovutlanish sabablari aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari asosida xarajatlarni hisoblash jarayonini takomillashtirish, resurslar samaradorligini oshirish, smeta tizimini bozor talablari bilan uyg'unlashtirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: qurilish tarmog'i, xarajatlarni hisoblash, mehnat xarajatlari, moliyaviy xarajatlar, smeta tizimi, iqtisodiy tahlil, resurslar samaradorligi, normativ baza.

Iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlar — bu korxonaning ma'lum bir mahsulot yoki xizmatni yaratish, uni bajarish yoki sotish jarayonida sarflaydigan moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslarining puldagi ifodasi sifatida talqin etiladi. Xarajatlarning mohiyati ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan barcha resurslarning qiymatini aks ettirishdan iborat bo'lib, ular korxona faoliyatining moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish sohasida xarajatlar — bu qurilish obyekti yoki infratuzilma loyihasini amalga oshirish jarayonida sarflanadigan materiallar, mexanizmlar, ishchi kuchi, texnologik jarayonlar, transport va boshqaruv bilan bog'liq resurslarning qiymati bo'lib, ular har bir loyiha uchun alohida smeta ko'rinishida shakllantiriladi. Qurilishda xarajatlar ishlab chiqarish jarayonining texnologik xususiyatlari, vaqt chegaralari, resurslar bozori va normativ talablar bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli o'ziga xos tavsifga ega.

Qurilish korxonalari misolida xarajatlar nafaqat obyektning real tannarxini belgilaydi, balki loyiha samaradorligi, baholash mexanizmi, narx shakllanishi va moliyaviy boshqaruvning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, xarajatlarni to'g'ri tasniflash, aniqlik bilan hisoblash va real vaqt rejimida monitoring qilish qurilish korxonalarining barqaror faoliyati va resurslardan samarali foydalanishining muhim omili sanaladi.

Qurilish jarayonining iqtisodiy asosini smeta hujjatlarida belgilangan xarajatlar tizimi tashkil etadi. Smeta qiymati ishlab chiqarish jarayoniga jalb etiladigan resurslarning normativ me'yorlari va ularning bozor qiymati asosida hisoblanadi. Ilmiy nuqtai nazardan olganda, smeta xarajatlari – bu qurilish mahsulotining tannarxini shakllantiruvchi mehnat, material, texnika, boshqaruv va boshqa ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy bahosidir.

Qurilish jarayonida smeta hujjatlarini shakllantirish va undagi xarajatlar tarkibini aniqlash qat'iy normativ-me'yoriy tizimga tayanadi. Ushbu tizimning markaziy hujjati sifatida

SHNK 4.01.01–04 “Qurilishda narxlarni shakllantirish uchun resurs xarajatlar smetasining normativ hujjatlari tizimi” e’tirof etiladi.

Mazkur normativ hujjat qurilish mahsulotining tannarxi va smeta qiymatini shakllantirishda qo’llaniladigan resurs xarajatlari me’yorlari, ularning iqtisodiy tavsifi va hisoblash metodikasini belgilaydi. SHNK 4.01.01–04 smeta tarkibidagi barcha asosiy xarajat turlarini (mehnat, materiallar, mashina-mexanizmlar, tashkiliy-boshqaruv xarajatlari va boshqalar) hisoblashda yagona metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Ushbu normativning ilmiy-amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- smeta qiymatini shakllantirishda resurs usulidan foydalanishni standartlashtiradi;
- har bir ish turi bo’yicha zarur mehnat, material va texnika resurslarining normativ iste’molini belgilaydi;
- resurslar qiymatini baholashda qo’llaniladigan koeffitsiyentlar, indekslar va tariflarni qo’llash mexanizmini aniqlaydi;
- qurilish mahsulotining iqtisodiy asoslangan tannarxini hisoblash uchun metodik uyg’unlik va shaffoflikni ta’minlaydi.

Smeta xarajatlari iqtisodiy mohiyatiga ko’ra quyidagi yirik guruhlariga bo’linadi:

1. To’g’ridan-to’g’ri xarajatlari

a) Mehnat xarajatlari

b) Qurilish materiallari xarajatlari

c) Qurilish mashina-mexanizmlari xarajatlari

2. Qo’shimcha (ishlab chiqarish bilan bog’liq) xarajatlari

3. Umumishlab chiqarish (bilvosita) xarajatlari

4. Boshqa xarajatlari va rezerv fondi

Jumladan, qurilish ob’ekting joriy narxlardagi bahosini aniqlashda loyihalashning dastlabki bosqichlari — dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA), dastlabki texnik-iqtisodiy hisob (DTIH), texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) va texnik-iqtisodiy hisob (TIH) — doirasida ilgari amalga oshirilgan o’xshash (analog) loyihalarning joriy narxlarda shakllangan baholari to’g’risidagi ma’lumotlardan foydalanish amaliy jihatdan maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu yondashuv bir tomondan, loyiha narxining real iqtisodiy sharoitlarga muvofiqligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, xarajatlarni asosli prognozlash va investitsiya samaradorligini aniqlashda ishonchli asos vazifasini bajaradi.

Ammo kuzatuvlarimiz natijasi buning aksini ko’rsatmoqda. Qurilish sohasida obyektlarning smeta qiymatini shakllantirishda bir qator muammolarning mavjudligi sababli ularning bugungi bozor qiymati aniq shakllanmayapti. Ushbu muammolar quyidagilardan iborat:

1-jadval

Qurilish obyekti qiymatini shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar va ularning natijasida kelib chiqqan oqibatlar

Muammo turi	Kelib chiqish sababi	Natijasi
Narx nomuvofiqligi	Eskirgan normativ va past bozor mosligi	Xarajat oshishi, shartnomalar buzilishi
Byurokratiyaning mavjudligi	Detallashtirishning murakkabligi	Smeta kechikadi, loyiha muddati uzayadi

Resurslarning yetishmovchiligi	Mehnat va texnikaga real ehtiyoj	Ishchi kuchi va texnika muammolari
--------------------------------	----------------------------------	------------------------------------

Jumladan qurilish tashkilotlari qurilish jarayononi amalga oshirishda ayrim texnika texnologiyalarning yetishmasligi va ularni ijara olib foydalanishlari smeta qiymatiga kiritilmasligi natijasida qo'shimcha xarajatlarni vujudga kelishiga sabab bo'lib qolmoqda. Buning natijasida smetaning dastlabki qiymatidan real bozor qiymati o'rtasida 15-20% farqlar vujudga kelmoqda.

Ushbu tafovut, bir tomondan, smeta rejalashtirish va narxlash metodologiyasida zaifliklar mavjudligini, boshqa tomondan esa tender narxlari, loyiha xarajatlari va operatsiyalarni boshqarish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois qurilish smeta metodologiyasini takomillashtirib, ijara xarajatlarini smetaga oldindan kiritish, rejalashtirish, va to'liq byudjet nazoratini joriy etish muhimdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Tashpulatov A.T. – Qurilish iqtisodiyoti. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
2. Norqulov A. va boshqalar – Qurilishda smeta tuzish va xarajatlarni rejalashtirish. – Toshkent, 2020.
3. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=F1hFv9oAAA&citation_for_view=F1hFv9oAAAAJ:IjCSPb-OG4C
4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15847927>
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15847449>